



ISSN 2181-1571

FarDU. ILMIY XABARLAR

IJTIMOIIY FANLAR



2/2025



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket ilmiy ishlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof.
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, prof.
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof.	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof.
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof.	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Sidoarjo'dagi Muhammadiya universiteti, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof.	SCOTT LEVI (AQSH)	Ogayo davlat universiteti, PhD, prof.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof.	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof.	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk Universiteti
ABDULLAEVA Z (Qirg'iz Respublikasi)	OshDU k.f.n., dots.	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof.		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof.
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc).
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof.	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof.	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots.	QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d., prof.
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.	FarDU, t.f.b.f.d., prof.
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots.		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d., prof.

Texnik muharrir: Sheraliyeva J.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

J.Sultonov

Chingizxon va Jin davlati o'rtasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili 224

M.A.Boltaboyev

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'lmagan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati 234

Sh.B.Jumayeva

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat 239

M.R.Sodiqova

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni (1991-2021-yillar) 244

A.X.Nigmatov

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari 251

M.B.Nazirov

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri 257

B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizayev

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi 260

M.A.Maxmudov

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati 266

I.B.Boxodirov

Birinchi jahon urushi yillarida turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi 270

J.Sultonov

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi 273

O.B.Nizomiddinov

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) 279

O.H.Jaynarov

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) 284

O.M.Normatov

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida 289

Y.A.Shukurillayev

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari 293

ILMIY AXBOROT

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagi falsafiy yondashuvlar 297

X.J.Isomiddinov

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlar 300

M.B.Nazirov

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri 304



UO'K.392

GLOBALLASHUV DAVRIDA BOQIY MAROSIM: TOSHKENT VOHASI MUQADDAS QADAMJO VA MOZORLARIDA ZIYORAT

В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ВЕЧНАЯ ТРАДИЦИЯ ПАЛОМНИЧЕСТВА В СВЯЩЕННЫХ МЕСТАХ И МАВЗОЛЕЯХ ТАШКЕНТСКОГО ОАЗИСА

IN THE ERA OF GLOBALIZATION: THE ETERNAL TRADITION OF PILGRIMAGE TO THE SACRED SITES AND MAUSOLEUMS OF THE TASHKENT OASIS

Jumayeva Shoirra Berdiyarovna 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti Tarix kafedrası dotsenti (PhD)

Annatotsiya

Muqaddas qadamjo va mozorlarga ziyorat Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy marosimlaridan biri hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda ziyorat mavzusi yana dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Globallashuv jarayoni ta'siri hamda turizm sohasi rivoji natijasida ziyorat turizmi yo'nalishida sayohat qiluvchilar soni yildan yilga oshib bormoqda. Vatanimiz dunyoga buyuk alloma, ulamoyu-valiy insonlari nomi bilan ham mashhurdir. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolani tayyorlashda Toshkent vohasida mashhur ziyoratgohlardan biri Shayx Umar Vali ziyoratgohi tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olindi. Toshkent vohasi ziyoratgohlari tarixi, me'moriy echimi va mahalliy aholining ziyorat marosimlari bilan respublikaning boshqa hududlaridan ajralib turuvchi lokal xususiyatlarga ega. Ayniqsa, vohaning tog' va tog'oldi hududlarida ziyorat marosimlari yaxshi saqlanib qolgan. Tadqiqod davomida quyidagi savollar belgilab olindi: zamonaviy dunyoda ziyorat an'alarining qayta tiklanishining asosiy sabablari va Shayx Umar Vali ziyoratgohining o'ziga xosligi nimada? Maqolani tayyorlashda Toshkent vohasida o'tkazilgan dala tadqiqotlari ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

Аннотация

Посещение священных мест и могил является одной из древних традиций народов Центральной Азии. Следует отметить, что в настоящее время тема паломничества стала одной из актуальных. Влияние процесса глобализации и развитие туризма приводят к тому, что количество туристов, путешествующих по направлению паломничества, с каждым годом увеличивается. Наша страна знаменита своими великими учеными, уламо и святынями, что имеет большое значение для развития паломнического туризма в стране.

Для написания данной статьи был выбран в качестве объекта исследования один из известных паломнических объектов Ташкентского оазиса – святынище Шейха Умара Вали.

История паломнических объектов Ташкентского оазиса, их архитектурные особенности и местные традиции паломничества выделяют данный регион среди других областей республики. Особенно хорошо сохранились традиции паломничества в горных и предгорных районах долины. В ходе исследования были выделены следующие вопросы: какие основные причины возрождения традиций паломничества в современном мире и в чем заключается уникальность святынище Шейха Умара Вали? В подготовке статьи активно использованы данные полевых исследований, проведенных в Ташкентском оазисе.

Abstract

Visiting holy places and graves is one of the ancient rites of the peoples of Central Asia. It is worth noting that today the topic of pilgrimage has again become one of the most pressing. As a result of the influence of globalization and the development of the tourism industry, the number of traveling pilgrims increases every year. Our homeland is also famous throughout the world for its great scientists, scientists and saints. This, in turn, is of great importance in the development of pilgrimage tourism in our country. In preparing this article, the tomb of Sheikh Umar Vali, one of the famous shrines of the Tashkent oasis, was chosen as the object of research. The pilgrimage sites of the Tashkent oasis have local features that distinguish them from other regions of the republic, with their history, architectural solutions, and pilgrimage rites of the local population. Pilgrimage rituals are especially well preserved in the mountainous and hilly areas of the oasis. The following questions were identified during the study: what are the main reasons for the revival of pilgrimage traditions in the modern world and what is the uniqueness of the shrine of Sheikh Umar Vali? In preparing the article, data from field studies conducted in the Tashkent oasis were widely used.

Kalit so'zlar: muqaddas joylar, ziyorat an'analari, lokal xususiyatlari, o'ziga xoslik, ziyorat urf-odatları, maqbara, qadamjo.

Ключевые слова: священные места, традиции паломничества, локальные особенности, индивидуальность, обычаи паломничества, мавзолеев, паломник.

Key words: sacred sites, pilgrimage traditions, local features, individuality, pilgrimage customs, mausoleum, pilgrim.

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlari o'zining buyuk tarixi va o'tmishi, boy madaniy merosi, betakror urf-odat va an'analari bilan ajralib turadi. Asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan moddiy va ma'naviy boyliklar inson aql-idroki va tafakkurining buyuk yutug'idir. Jumladan, ziyoratgohlar, ziyorat marosimlari va urf-odatlari ham mana shu zaminda yashab kelayotgan xalqlarning diniy dunyoqarashi asosida shakllanib, Markaziy Osiyo xalqlari mentalitetining ajralmas qismiga aylangan desak xato bo'lmaydi. Ziyoratgohlar, maqbaralar va qabristonlar ommaviy e'tiqodni ifoda etuvchi muqaddas joylar ma'naviy ozuqa beruvchi omillar bo'libgina qolmay, uzoq-yaqindan ziyorat qilish uchun kelgan insonlarning uchrashish, madaniyat almashish markazi sifatida va yosh avlod tarbiyasida oliy tuyg'ularni shakllantirishda juda muhim rol o'ynaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan Shayx Umar Vali ziyoratgohi nafaqat O'zbekiston Respublikasi, balki Markaziy Osiyo mintaqasida mashhur ziyoratgohlardan biri bo'lib, ziyoratgohning qurilishi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar juda ham kam bo'lib, asosan xalqona qarashlar va rivoyatlar bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Shayx Umar Bog'istoniy to'g'risida ma'lumot "Rashohat", "Lamohat", "Nasabnomai Xoja Ahrori Valiy", "Tarixi jadidai Toshkand" kabi tarixiy manbalarda qayd etilgan [1.B-252].

Jumladan, Toshkent viloyati ziyoratgohlari to'g'risida ma'lumot beruvchi muhim yozma manbalardan yana biri Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning qalamiga mansub "Tarixi jadidai Toshkand" asari hisoblanadi. Mazkur asarda Qaffol Shoshiy, Shayx Muhammad parranda, Xoja Dovud, Shayx Hovandi Tohur, Boboi Obrez, Hazrat Ukkosha, Xoja Yakka, Zangi Ota, Shayx Zayniddin, Xoja Chirog'bardor, Said Rabotakxoja va Xoja Alambardor kabi bir qator shaxslarga tegishli mozorlarning shaharda joylashgan o'rni, ularga tutash binolar va o'rtasidagi masofa hamda o'sha davrdagi holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin [2.B-94].

Yurtimiz ziyoratgohlarini tadqiq etish, tarixi va ziyoratgohlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan aziz insonlarning hayoti bilan tanishishda muhim manbalardan biri "O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari" turkumidagi kitoblar muhim ahamiyatga ega. Mazkur to'plamning birinchi jildida Farg'ona viloyati, ikkinchisida Andijon va Namangan, 3-jildi qadimiy va muazzam Toshkent viloyati va Toshkent shahri ziyoratgohlariga bag'ishlangan. Mualliflar tomonidan Toshkent viloyati joylashgan 74 ta muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixi, ular bilan bog'liq afsona va rivoyatlar to'g'risida ma'lumot berilgan [3.B.-356]. Shuningdek, "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" deb nomlanuvchi 25 jildidan iborat kitoblar turkumida Toshkent viloyati epigrafikasi haqida kitob jildi 2017 yilda nashr etilib, Zangiota va Shayx Umar Vali Bog'ustoni kabi qadimiy ziyoratgohlar bilan bir qatorda mustaqillik yillarida bunyod qilingan Masjid Ali ziyoratgohi tarixi, ziyoratgohlardagi bitiklar to'g'risida ma'lumot berilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda sinxron, qiyosiy-tarixiy metodlaridan foydalanildi. Taqqoslash usuli asosan, ziyorat marosimlarini o'rganish davomida keng qo'llanilib, Toshkent viloyati hamda respublika miqyosidagi ziyorat marosimlari o'zaro taqqoslanib, mazkur mintaqaning hududiy joylashuvi, xo'jaligi va iqtisodiy ahvoli kabi omillar ta'sirida vujudga kelgan lokal xususiyatlar aniqlandi. Sinxron usuli yordamida ziyorat marosimlarining diniy, ma'naviy, iqtisodiy hamda lokal xususiyatlari ham birgalikda tahlil etildi. Qiyosiy-tarixiy usul orqali ziyoratgohlar va ziyorat marosimlarining rivojlanish tarixi bosqichlarida o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, sobiq sovet davri hamda mustaqillik yillarida ziyoratgohlarga bo'lgan munosabatni tahlil etish, shuningdek, globalashuv jarayonlari kuchli kechayotgan bugungi kunda ziyorat marosimlarida sodir bo'layotgan transformatsion jarayonlarni aniqlashda keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy natijasi muqaddas mozorlarni ulug'lashning zamonaviy amaliyotini tahlil qilishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Toshkent viloyati mashhur ziyoratgohlardan biri Shayx Umar Vali ziyoratgohi bo'lib, Shayx Umar Bog'istoniy (tug'ilgan yili aniq emas, 1291-92 yilda vafot etgan) avliyo darajasida ulug'lanib, ul zot vafotidan so'ng bu er muqaddas ziyoratgohga aylantirilgan. Qutb ul-aqtoq martabasi bilan ulug'langan Hazrat Shayx Umar Bog'ustoni choriylardan Umar ibn Hattob (r.a.) avlodidan bo'lib, Toshkent vohasida yashab o'tgan valiy va ulamolarning katta qismi mana shu avlodga nasab jihatdan bog'lanadi. Qolgan qismi esa piru muridlik bog'lanishlariga ega bo'lib, yagona ruhoniylar birlikni tashkil etadi. Shu sabab ham Toshkent vohasida Yassaviya tariqati keng tarqalgan.

TARIX

Shayx Umar Vali ilmi, Islom dini targ'ibotchisi bo'lgan. Atrofdagi aholi savodini chiqarishga harakat qilgan hamda xalqning diniy, ma'naviy-ma'rifiy rahnamosi bo'lgan [4.B-327.].

Avliyo qabri yonida umr yo'ldoshlari (Qurbonjon ocha) hamda nevarasi Ho'ja Dovud qabri mavjud. Savet davridagi ateistik siyosat sabab mashhur ziyoratgoh faoliyati taqiqlanib, diniy ulamolar qatag'on etilgach, ziyoratgohdan faqatgina nuragan paxsa devorlarga saqlanib qolgan. Mustaqillik sharofati qabr ustida 2002-2006 yillar davomida Nanay qishlog'ida tug'ilib o'sgan Niyozmetovlar oilasi tamonidan sharqona uslubda maqbara bunyod etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli Qarorining "Ziyorat turizmi marshrutlarida foydalaniladigan madaniy meros ob'ektlarining 2021 - 2025 yillarda ustuvor ravishda restavratsiya qilish" dasturiga kiritilgan ziyoratgohda sharqona uslubda 3 ta maqbaralar bunyod etilib, hozirgi kunda masjid qurilishi ishlari olib borilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizdagi ziyoratgohlar qayta tiklanib, ziyoratchilar va sayyohlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Jadval №1. Shayx Umar Vali ziyoratgohida ziyorat marosimlari elementlari.

Elementlar	An'anaviy (sovet davriga qadar)	Zamonaviy (2019-2020)
Kiyinish madaniyatiga amal qilish (ayollar va erkaklar).	Barcha uchun majburiy.	Ziyoratchilar uchun shart. Sayyohlar uchun shart emas.
Tahoratda bo'lish (qalb va jism pokligi).	Barcha uchun majburiy.	Ziyoratchilar uchun shart. Sayyohlar uchun shart emas.
Duo o'qish (Qur'on suralari).	Barcha uchun majburiy.	Ziyoratchilar uchun shart. Sayyohlar uchun shart emas.
Qurbonlik keltirish.	Iqtisodiy imkoniyati etarli ziyoratchilar uchun majburiy (Qurbonlik go'shtidan taom tayorlab tarqatish).	Iqtisodiy imkoniyati etarli ziyoratchilar zarur. Sayyohlar imkoniyatiga qarab.
Pul xayr-ehson qilish (yoki oziq-ovqat, uy hayvonlari).	Iqtisodiy imkoniyati etarli ziyoratchilar uchun majburiy. Qolganlar imkoniyatiga qarab (kamxarj ehson).	Iqtisodiy imkoniyati etarli ziyoratchilar zarur. Boshqalar imkoniyatiga qarab.
Narsa-buyum ehson qilish (material, turli buyumlar).	Turli buyumlar ehson qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.	Oqliq deb atalgan oq material, joynamoz, gilam kabi jihozlar.
Olov yoqish (sham, chiroq yoqish).	Qirq chiroq yoqilgan.	Bugungi kunda chiroq yoqish taqiqlangan.
Qurbonlik go'shtidan taom tayyorlab, tarqatish.	Ziyoratgohda asosan qo'y, xo'roz va echki qurbonlik qilib, sho'rva va osh kabi taomlar tayyorlab tarqatilgan.	Ixtiyoriy, bugungi kunda maqbara alohida qurbonlik keltirish va taom tayyorlash uchun sharoitlar mavjud.
Muqaddas mozorlarning mo'jizaviy ta'siriga ishonch (dardiga shifo, muammolarga echim topish).	Mo'jizaviy ta'sir kuchi to'g'risida ma'lumotlar mavjud (avliyoning hayotiy mushkullarga echim topishdagi ko'magi), befarzandlar farzand so'rab kelishgan.	Ziyoratchilarda ishonch mavjud. Ziyoratgohdagi ko'p asrlik daraxtlar va buloq suvi turli dardlarga shifo deb qaraladi.

Jumladan, Toshkent viloyatida Bo'stonliq tumani Bog'iston qishlog'ida joylashgan ziyoratgoh bahor va kuz oylarida ziyoratchilar bilan gavjum bo'ladi. 2023 yil dala tadqiqoti ma'lumotlariga ko'ra maqbaraga nafaqat Markaziy Osiyo, shuningdek, Turkiya, Malayziya va boshqa turkiy davlatlardan ziyoratchilar kelganligi kuzatilgan [5].

Bo'stonliq tumani bo'ylab sayohat tashkil etuvchi Turistik firmalar tomonidan ko'rsatilayotgan ziyorat yo'nalishlari tahlili shuni ko'rsatdiki, asosiy yo'nalishga quyidagi ziyorat obyektlari kiritilgan: Balagordon, Qadamjoy va Shayx Umar Vali (shuningdek, Chorvoq suv ombori).

Jadval №2. Bo'stonliq tumani yo'nalishi ziyorat obyektlarining qisqacha xususiyatlari.

№	Ziyorat obyektlarining xususiyatlari	Ziyorat marosimlarining o'ziga xos xususiyatlari
1.	Jarboshi Avliyo (Balagordon) qadamjosi.	G'or va buloq suviga ega tabiati so'lim joy. Xalqona qarashlarga ko'ra Hazrati Bahouddin Naqshband qadamlari etgan joy bo'lib, turli balolardan xolos etuvchi joy sifatida ziyorat qilinadi. G'orda tomib turuvchi buloq suvi oshqozon-ichak kasalliklariga shifo hisoblanadi. Asosan bahor va kuz oylarida gavjum bo'lib, qurbonlik qilib, taom tayyorlanadi.
2.	Qadamjoy (Obi Rahmat) ziyoratgohi – 365 yil umr ko'rgan Idris payg'ambar nomi bilan bog'lanadi.	Ziyoratgohda besh panja shaklidagi buloqlar hamda 750-800 yoshli, diametri 8,47 sm.ga teng ulkan chinor daraxti mavjud. “Muqaddas buloqlar” suvi tarkibidagi ma'danlar oshqozon-ichak kasalliklarini da'volashda shifobaxsh suv hisoblanadi. Yana bir mo'jizaviy xususiyati shuki, buloq suvlari qishda iliq, yozda esa muzdek bo'lib turadi. Asosan, qurbonlik so'yilib, chalpak va bo'g'irsoq pishiriladi. Buloq suvi dardga shifo deb ixlos bilan ichiladi. Savdo xodimlari va uzoq safarga yo'l olgan kishilar ziyoratga kelib, safari behatar bo'lishini, savdo ahli esa baraka so'raydi. Befarzandlar farzand istagida ziyoratni amalga oshiradi.
3.	Shayx Umar Vali ziyoratgohi.	Mustaqilikdan so'ng sharqona uslubda maqbara bunyod etilgan. Atrofi bog' bo'lib, rivoyatlarga ko'ra bu erdagi qatrangi, yong'oq kabi ko'p asrlik daraxtlar Shayx Umar Vali tomonidan ekilgan.

Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent vohasida mashhur bo'lgan Shayx Umar Vali ziyoratgohlardagi an'analar vaqt va zamon ta'siri ostida o'zgarib turgan bo'lsada, asosiy – avliyo va valiy insonlarga hurmat, ularni e'zozlash kabi qarashlar asrlar osha ajdodlardan avlodlarga me'ros sifatida o'tib kelmoqda. Jumladan, sovet davlati tomonidan olib borilgan diniy taqiqlarga qaramasdan xalqimizning avliyo va ulamolarga bo'lgan ishonch va hurmati yo'qolmagan.

Shayx Umar Vali ziyoratgohida qabri atrofni supirish, qabrni o'pish, chiroq yoqish kabi amallar bugungi kunda taqiqlangan. Shuningdek, ziyoratgohda turli shaklga ega arab yozuvidagi bitiklarga ega toshlar mahalliy aholi tomonidan e'zozlanib, toshni tavof qilish va niyat qilish kabi urf-odatlar bajarilgan [6].

Ziyoratchilar asosan islomiy amallarni bajarish – Qur'on oyatlarini o'qish, duo qilish va nomoz o'qish, qurbonlik (Ollohga atab) va ehson qilish kabi amallarni bajarish mumkin. Ziyoratgohda imom (mahalliy aholi shayx deb ataydi) faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, imom tomonidan Qur'oni karim oyatlarini tilovat etilib, diniy mavzuda ma'ruza qilinadi. Bu esa ziyoratchilarning diniy dunyoqashi yanada kengayishiga, ziyorat davomida ma'naviy ozuqa olishlariga yordam beradi. Zero muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar ma'naviy tarbiya maskani hisoblanib, xalqimizning buyuk tarixi, ulug' zotlari to'g'risida ma'lumot berish bilan bir qatorda, ziyoratchilarda poklik, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va o'zaro hurmat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TARIX

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Toshkent viloyatidagi ziyoratgohlar va qadamjolar to'g'risidagi qarashlar hamda tasavvurlar asrlar davomida shakllanib, bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan [7.B.-11]. Ziyoratgohlar bilan bog'liq marosimlar an'ana tarzida ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelmoqda. Muqaddas joylar, er, suv, hayvonlar va o'simliklar to'g'risida xalqona qarashlar, marosimlar hamda tabobat sirlari odamlar ongida saqlanib, avloddan-avlodga o'tadi. Xalqona qarashlar asosan, og'zaki holatda saqlanadi va quyidagi yo'llar bilan avlodlarga uzatiladi:

- a) kundalik oilaviy (umumiy) aloqa orqali;
- b) an'anaviy "ustoz-shogird" tizimi orqali;
- c) qadimiy usul, ya'ni o'zaro muloqot va o'rgatish orqali [8. Rp.-11].

Shu bilan birga, qadamjo va ziyoratgohlarning har biri ma'lum bir tuman, qishloq hamda mahallalarda yashovchi mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi hamda diniy qarashlarini ifodalovchi maskan sifatida muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Мустафоев С., Аблаев М. Туронзамин азиз авлиёлари ва уломалари тазкираси. 2-китоб. –Т.: "Sano-standard", 2017.
2. Султонов Ў.А. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг "Тарихи жадидаи Тошканд" асари (XIX аср). – Тошкент.: "Ўзбекистон", 2007.
3. Эралиев Б., Остонақулов И., Абдулаҳатов Н. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадимжолари: Тошкент вилояти ва Тошкент шаҳри.-Тошкент, "Турон замин зиё" 2015.
4. Кабировва Б. Тарихий маконга бой Бўстонлик.-Т.: "Иноватсион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи", 2023.
5. Dala yozuvlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 2023 уу.
6. Dala yozuvlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 2024 уу.
7. Жумаева Ш.Б. Тошкент вилояти зиёратгоҳлари: ривожланиш босқичлари ва ўзига хос хусусиятлари. –Т.: "GRANT KONDOR PRINT", 2023.
8. Harvey G. Animism. Respecting the Living World. Animizm. Uvajaya jivoy mir. – New York: Columbia University Press, 2006.



Fotolavha: Shayx Umar Vali ziyoratgohi ziyorat marosimlari.